



XALQIMIZGA MUNOSIB TURMUSH SHAROITI YARATISH VA SANOAT RIVOJIGA XIZMAT QILADIGAN LOYIHALARNI SHIJOATLI YOSHLAR BILAN AMALGA OSHIRAMIZ

Prezident Shavkat Mirziyoyev 8-aprel kuni sanoatning yuqori texnologik tarmoqlari, qishloq xo‘jaligi va boshqa yo‘nalishlarda amalga oshirilayotgan loyihalar, mahallalarda aholi daromadlarini oshirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar bilan tanishish, yangi korxonalar qurilishiga start berish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalarini muhokama qilish maqsadida Jizzax viloyatiga tashrif buyurdi.



Birinchi manzil Forish tumanidagi “Basalt Uzbekistan” klasteri bo‘ldi.

Forish hududi bo‘yicha viloyatda eng katta tuman. Lekin yerdan foydalanish samaradorligi ancha past edi. Adir va yaylovlarda, asosan, chorva boqilib, sanoat korxonasi yo‘q edi.

Yetti yil avval Forishga sanoat kirib keldi — Olmossoy konidan bazalt toshini qazib olib, undan tola tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Noyob, innovatsion texnologiya asosida qurilish sanoati uchun muhim bo‘lgan armatura va setkalar ishlab chiqarila boshlandi.

Davlatimiz rahbari 2019-yil yanvar oyida bu korxonaga tashrif buyurib, uning faoliyatini yanada kengaytirish, mahsulotlar turini ko‘paytirish bo‘yicha ko‘rsatmalar bergan edi.

Shu asosida bozordagi talab, xomashyo olinadigan konlar o‘rganildi. Germaniya, Fransiya, Italiya, Chexiya kabi davlatlardan eng zamonaviy texnologiyalar keltirildi. Natijada 300 gektar maydonda umumiy qiymati 498 million dollarlik oltita loyiha tashkil etilib, korxona kasterga aylandi.

Davlatimiz rahbari xomashyo toshlari va tayyor mahsulotlarni ko‘zdan kechirdi.

Klasterda yiliga 177 ming tonna bazalt toshidan maxsus tola, direkt roving, fibra, armatura, kompozit geosetka, quvurlar, mato va issiqlik-izolyatsiya plitalari kabi 42 turdagi mahsulot ishlab chiqarilmoqda. Jumladan, o‘tgan yili 45 ming tonna 554 milliard

so‘mlik mahsulot tayyorlangan. Ularga dunyoda talab yuqori. Mahsulotlarning 80 foizi AQSH, Angliya, Polsha, Italiya, Chexiya, Gruzija, Rossiya, Turkiya, Belarus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston kabi davlatlarga eksport qilingan.

Klasterda 1 ming 700 dan ortiq kishi ish bilan ta‘minlangan.

Mutaxassislarning aytishicha, bazalt-dan tayyorlangan qurilish materiallari zanglamaydi. Yengil, lekin mustahkam. Beton qorishmalarining ishqorli muhitiga, tuzli va kislotalar aralashmalariga chidamli. Devorga bazalt materiali ishlatish mustahkamlikni oshiradi, binoda issiqlikni yaxshi saqlaydi. Yonuvchan emasligi yana bir muhim tomoni. Shu bilan birga, mahsulot narxi ham nisbatan arzon.

Ushbu mahsulotlarni kommunal xo‘jaligi, avtomobilsozlik, to‘qimachilik, neft-gaz va boshqa tarmoqlarda qo‘llash bo‘yicha taqdimot qilindi.

Prezidentimiz buning afzalliklarini tadbirkorlarga tushuntirish, ularning o‘zaro hamkorligini rivojlantirish bo‘yicha ko‘rsatma berdi. Yangi davlatlarga sifat sertifikatlarini olib, tashqi bozorga chiqishni yanada faollashtirish, xalqaro qurilish va sanoat kompaniyalari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish zarurligini ta‘kidladi.

Kelgusi yil klaster korxonalaridan biri — “Basfiber treyd” tomonidan yiliga 25 ming tonna bazalt toshidan tola va mato ishlab

chiqarish quvvati yaratiladi. Hozirgi paytda 145 million dollarlik zarur uskunalar keltirilgan. Bu yangi loyiha asosida ishlab chiqarilgan mahsulot ichki ehtiyojni qoplash bilan bir qatorda, 90 foizi eksportga yo‘naltiriladi.

Mutasaddirlarga shu yerning o‘zida 500 million dollarlik, qo‘shilgan qiymati yuqori bo‘lgan 20 turdagi yangi loyihalarni joylashtirish vazifasi qo‘yildi. Natijada qo‘shimcha 2 mingta ish o‘rni paydo bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari Sharof Rashidov tumanida qurilayotgan “Yangi O‘zbekiston” massivini borib ko‘rdi.

Viloyatda ilgari hech bunday keng ko‘lamli qurilishlar bo‘lmagan edi. So‘nggi yillarda o‘nlab zavodlar ishga tushirildi, yangi sanoat tarmoqlari paydo bo‘ldi. Shunga yarasha ijtimoiy infratuzilma ham barpo etilmoqda.

Sharof Rashidov tumanining bu hududi adir yonbag‘ri, undan deyarli foydalanilmas edi. Hozir 140 gektarli ulkan maydonda jadal qurilish ketmoqda. Loyiha uch bosqichli bo‘lib, 3 ming 936 xonadonli 105 ta ko‘p qavatli uy barpo etilishi rejalashtirilgan. Uylar 9, 12 va 16 qavatli bo‘lib, bu ham Jizzax sharoitida yangilik.

Ayni paytda birinchi bosqich doirasida 204 xonadonli 4 ta ko‘p qavatli uy, markaziy qozonxona, shourum va ichki yo‘llar qurilgan. Yana 16 ta turar joy, maktab va maktab-gacha ta‘lim muassasasi, savdo markazi bunyod etiladi. “Innotexpark” aholini ish bilan ta‘minlashda qo‘l keladi.

Ikkinchi bosqich 2026, uchinchi 2028-yillarga reja qilingan. Bunda uylardan tashqari mahalla markazi, poliklinika, masjid, mehmonxona, bolalar va sport o‘yingohlari, “Yangi O‘zbekiston” bog‘i barpo etiladi. Bo‘sh maydonlarga ham daraxtlar ekilib, xiyobonga aylantiriladi.

Davlatimiz rahbari bu yil rejalashtirilgan qo‘shimcha uylar qurib, imtiyozli ipoteka kreditlari orqali aholiga xarid imkoniyatini yaratish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi. Shunga mutanosib ravishda infratuzilma tarmoqlari, maktab, bolalar bog‘chasi kabi ijtimoiy muassasalar qurilishini jadallashtirish, savdo va xizmatlarni, jumladan, yo‘l bo‘yida umumiy ovqatlanish shoxobchalarini tashkil etish muhimligi ta‘kidlandi.

Jizzax viloyatida uchta shunday massiv barpo etilmoqda. Ularda 4 ming 700 xonadonga ega 156 ta ko‘p qavatli uy quriladi. Aholi barcha ijtimoiy xizmatlar bilan ta‘minlanadi. “Yangi O‘zbekiston” massivlari qurish harakati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-dekabrda farmonga muvofiq boshlangan. Umuman, mamlakatimizda 53 ta massivda bunyodkorlik ishlarini olib borilmoqda. Bugungi kunda 14 ming 400 ta xonadonli 409 ta ko‘p qavatli uy foydalanishga topshirilgan. Joriy yilda bunday massivlarda 31 ming 447 ta xonadondan iborat 767 ta turar joylar qurilishi belgilangan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Sharof Rashidov tumanidagi Tuyuqli mahallasida

bo‘lib, aholi turmush sharoiti va daromadlari bilan qiziqdi.

Mahallalardagi imkoniyatlarni ishga solib, aholi bandligini ta‘minlash bugun davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Bunda eng qulay va hammabop imkoniyatlardan biri to‘morqadan foydalanishdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining shu yil 5-martdagi “Aholi xonadonlarida sanoat usulida mahsulot ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash hamda to‘morqa va dehqon xo‘jaliklarida yangi zaxiralarni ishga solishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida katta imkoniyatlar belgilandi.

Bunday omilkorlikni Tuyuqli mahallasida ham ko‘rish mumkin. 678 ta xonadonning deyarli hammasida to‘morqa bor. Ularning jami maydoni 36 gektar. Mevali daraxtlar, tok va sabzavotlar yaxshi hosil beradi. 314 ta xonadondagi issiqxonalarda poliz ekinlari va gul ko‘chatlari yetishtiriladi.

Davlatimiz rahbari shu yerlik Abdumomin Karimov xonadonini kirib ko‘rdi.

Uyning to‘morqasi 12 sotix, shundan 7 sotixda issiqxona barpo etilgan. Bundan tashqari, chorva, tovuq, asarlari boqiladi. Xonadon egasi ro‘zg‘orboq ekinlar yetishtirib, yiliga 200 million so‘mdan ziyod daromad olayotganini so‘zlab berdi.

— O‘rtacha mahalladagi shu oddiy xonadon misolida ko‘ryapmizki, oilaning o‘zida harakat bo‘lsa, yaxshi daromad topsa bo‘ladi. Aholi ixtiyorida to‘morqalar, undan

foydalanaman degan insonlar ham ko‘p. Faqat ularga yordam berish kerak. Masalan, mahalliy korxonalarni jalb etib, issiqxona qurilmalari, voish, asarlari uyasi, ko‘chat, urug‘lik va ozuqalarni yaxlit to‘plam qilib, arzon narxda yetkazib berish zarur, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezident shu yerda “mahalla yetiligi” bilan suhbatlashdi. Joylardagi imkoniyatlarni to‘liq ishga solish orqali oilalarning daromadini, xarid qobiliyatini oshirish haqida so‘z yuritildi. Bu ularning hayot sifatida, salomatligida, farzandlari kamolida aks etib, jamiyat rivojiga hissa bo‘lib qo‘shilishi ta‘kidlandi.

Shundan so‘ng Prezident Shavkat Mirziyoyev “ADM Jizzakh” avtomobil zavodi faoliyati bilan tanishdi.

Oldinlari Jizzax viloyati sanoat ko‘rsatkichlari eng past bo‘lgan hududlardan biri edi. Bugungi kunda har bir tumanga sanoat kirib bordi.

Viloyat sanoatini rivojlantirishda “Jizzax” erkin iqtisodiy zonasida katta o‘rin tutmoqda. U mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha respublikada uchinchi, eksport hajmi bo‘yicha esa oltinchi o‘rinda turadi. Keyingi yillarda uning faoliyati takomillashtirilib, ishlab chiqarishga qulaylik kengaytirildi. Bugungi kunda sanoat zonasida 33 ta loyiha amalga oshirilib, 7 ming 670 kishi ishlamoqda.

Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

Q A R O R I

MUBORAK RAMAZON HAYITINI NISHONLASH TO‘G‘RISIDA

Xalqimiz uchun asrlar davomida ezgulik, mehr-oqibat, xayr-u saxovat, ma‘naviy poklanish ayyomi bo‘lib kelayotgan muborak Ramazon oyini bu yil yurtimiz mo‘min-musulmonlari o‘zgacha shukuh va hamjihatlik bilan o‘tkazdilar. Ayniqsa, rahmat va mag‘firat nurlari yo‘g‘iladigan ushbu saodatli kunlarda kam ta‘minlangan va ehtiyojmand oilalar, nogironligi bo‘lgan shaxslarga moddiy va ma‘naviy yordamlar ko‘rsatilayotgani, barcha hududlarimizda keng jamoatchilik vakillari ishtirokida ehsan dasturxonlari yozilib, el-yurtimizning tinchligi, baxti va kelajagi uchun duoyi fothalar qilinayotgani bu oyning fayz-u tarovatini yanada oshirmoqda.

Hech shubhasiz, bunday savobli va oliyjanob ishlar yer yuzidagi barcha insonlarni

doimo do‘st va birodar bo‘lib yashashga davat etadigan muqaddas islom dinimizning ezgu g‘oyalarni chuqur his etgan holda, mamlakatimizdagi tinchlik va barqarorlikni, turli millat va konfessiyalar o‘rtasidagi tutuvlikni mustahkamlashga, bugungi yorug‘ hayotimizning qadriga yetib, uni yanada obod va farovon etishga xizmat qilmoqda.

Muborak Ramazon hayiti kunlarida yanada yaqqol namoyon bo‘ladigan ana shunday an‘ana va qadriyatlarimizni asrab-avaylash hamda keng targ‘ib etish maqsadida:

1. Joriy yilda Ramazon hayitining birinchi kuni **10-aprel — chorshanba** kuniga to‘g‘ri kelishi haqidagi O‘zbekiston musulmonlari idorasining axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinib, mamlakatimizda 2024-yil **10-aprel** kuni Ramazon hayiti bayrami sifatida keng nishonlansin.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi va boshqa hamkor tashkilotlar bilan birgalikda Ramazon hayitini xalqimizning **milliy an‘ana va urf-odatlariga uyg‘un holda** o‘tkazish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

Turizm qo‘mitasi Transport vazirligi bilan birgalikda yurtdoshlarimiz uchun Ramazon hayiti kunlarida **mo‘tabar ziyoratgohlar va tarixiy qadamjolariga ziyoratlarni tashkil etish** maqsadida qulay sharoit va imkoniyatlar yaratilsin.

3. O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Ramazon hayitini nishonlash bilan bog‘liq tadbirlarni keng yoritish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi M.M.Kamilov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

Toshkent shahri,
2024-yil 8-aprel

SH. MIRZIYOYEV

INSONPARVARLIKNING YUKSAK NAMUNASI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Muborak Ramazon hayitini nishonlash arafasida xalqimizga xos ezgulik, bag‘rikenglik, insonparvarlik, mehr-oqibat va kechirimli bo‘lish kabi oliyjanob fazilatlarining yorqin ifodasi sifatida “Jazo muddatini o‘tayotgan, qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va tuzalish yo‘liga qat‘iy o‘tgan bir guruh shaxslarni afv etish to‘g‘risida”gi Farmoni imzoladi.

Farmonga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 23-bandiga asosan, jazo muddatini o‘tayotgan hamda qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va tuzalish yo‘liga qat‘iy o‘tgan **426** nafar shaxs afv etildi.

Afv etilgan shaxslarning **135** nafari asosiy jazodan to‘liq ozod etildi, **200** nafari

jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilindi, **26** nafarining ozodlikdan mahrum etish jazosi yengilroq jazo bilan almashtirildi. Shuningdek, **65** nafar shaxslarga tayinlangan ozodlikdan mahrum etish jazosining muddatlari qisqartirildi.

Afv etilganlarning **11** nafarini chet el fuqarolari, **50** nafarini ayol, **13** nafarini 60 yoshdan oshgan erkaklar, **157** nafarini yoshlar (shulardan, 3 nafari voyaga yetmaganlari) hamda **5** nafarini taqiqlangan tashkilotlar faoliyatida qatnashgan shaxslar tashkil etadi.

Farmon ijrosi yuzasidan afv etilgan shaxslarni oilasi va yaqinlari bag‘riga qaytarish, ijtimoiy hayotga moslashib, foydali mehnat bilan shug‘ullanishlari, sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘yib, jamiyatda munosib o‘rin topishlari uchun ularga ko‘mak berish bo‘yicha mas‘ul vazirlar va idoralarga tegishli topshiriqlar berildi.

XALQIMIZGA MUNOSIB TURMUSH SHAROITI YARATISH VA SANOAT RIVOJIGA XIZMAT QILADIGAN LOYIHALARNI SHJOATLI YOSHLAR BILAN AMALGA OSHIRAMIZ

Boshlanishi 1-betda

“ADM Jizzakh” mas’uliyati cheklangan jamiyati sanoat zonasida samarali faoliyat yuritayotgan korxonalardan biri. U 2021-yilda tashkil etilgan. O‘tgan uch yilda “Kia”, “Chery” hamda “Haval” brendlari ostida 23 turdagi 36 mingta avtomobil ishlab chiqarilgan.

Loyiha doirasida 234 million AQSH dollari miqdorida mablag‘lar o‘zlashtirilib, 1 ming 800 ta ish o‘rni yaratildi.

Birinchi bosqichda yirik uzelli yig‘uv yo‘lga qo‘yilgan edi. Bir vaqtning o‘zida zavodni kengaytirish bo‘yicha ishlar olib borilib, joriy yil mart oyida yangi bino va quvvatlar ishga tushirildi. Ya‘ni yuqori texnologiyalarni jalb qilgan holda, shtamplash, payvandlash, bo‘yash va yig‘ishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish jarayoni tashkil etildi.

Davlatimiz rahbari zavoddagi ishlab chiqarish jarayonini atroflicha ko‘zdan kechirdi.

Korxona yuqori texnologik uskunalar bilan jihozlangan. Ular Janubiy Koreya, Yaponiya va Germaniya kabi davlatlardan keltirilgan. Zavodda 30 ta robot bor, ishlab chiqarish jarayoni 33 foiz avtomatlashtirilgan. Avtomobilning yurish qismlari sozligi, statik va dinamik tormoz tizimini tekshirish jihozlari o‘rnatilgan.

Prezidentimiz zavodda mahalliylashtirish darajasini oshirish, yurtimiz sanoat korxonalari bilan kooperatsiyani kengaytirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

Bu borada ishlar boshlangan. 2024-2027-yillarda 348 turdagi butlovchi qismlarni mahalliylashtirish rejalashtirilgan. Ayni paytda mamlakatimizdagi 21 ta korxona bilan kooperatsiya tizimi yo‘lga qo‘yilgan.

Umuman, korxonada yiliga 100 ming dona yengil avtomobil ishlab chiqarish quvati yaratiladi. Natijada kelgusida ish o‘rinlari soni 3 mingga yetkazilishi ko‘zda tutilgan.

Avtomobillar sifatini yanada oshirish maqsadida Janubiy Koreya, Hindiston, Xitoy va Vyetnam davlatlaridan malakali mutaxassislar jalb etildi. Bu borada xorijiy hamkorlar bilan joriy yildan boshlab dastlab 50 nafar muhandis Janubiy Koreya hamda Xitoydagi tadqiqot va loyihalash markazlarida malaka oshirishga yuborilishi belgilangan.

Davlatimiz rahbari zavodda ishlab chiqarish boshlangan yangi “Kia Sonet” avtomobilini ko‘rdi.

Oxirgi besh yilda Jizzax viloyatiga 4 milliard dollardan ortiq investitsiyalar kirib kelgan. 50 trillion so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, 861 million dollarlik eksport qilingan.

Bu yil viloyatda 2 milliard dollarlik 400 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Ularda 11 mingta yangi ish o‘rni ochiladi.

Davlatimiz rahbariga bu sohadagi rejalar taqdimot qilindi. Xorijiy investor va mahalliy tadbirkorlar 6 milliard 100 million dollarlik 50 ta loyihani amalga oshirishga tayyorligini bildirdi.

Loyihalar tog‘-kon, mashinasozlik, elektr texnikasi, kimyo, to‘qimachilik, oziq-ovqat, qishloq xo‘jaligi, tibbiyot va farmatsevtika kabi talab yuqori sohalarda. Muhimi, ularning natijasida qariyb 20 ming yangi ish o‘rni yaratiladi.

Prezidentimiz investorlarga loyihalarni amalga oshirishda omad tiladi. Mutasaddirlar ularning ijrosini alohida nazoratga olish topshirildi.

O‘zbekiston Prezidenti Jizzax viloyatiga tashrif chog‘ida sanoat va energetika loyihalarining boshlanishiga bag‘ishlangan marosimda ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari so‘zining boshida barchani yaqinlashib kelayotgan Ramazon hayiti bilan tabriklab, xalqimiz manfaatini yo‘lidagi harakatlarga xayr-baraka tiladi.

Ma‘lumki, sanoat rivoji barqaror energetika bog‘liq. Shu bois, bu ikki soha mutanosib rivojlantirilmoqda. Birgina 2023-yilda mamlakatimizda 4 ming 600 ta sanoat korxo-

nalari ishga tushirildi. Sanoat 6 foizga o‘sib, 656 trillion so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi.

Umumiy quvvati 2,4 gigavatt bo‘lgan 7 ta yirik issiqlik, quyosh va shamol elektr stansiyalari tarmoqqa ulandi. Bundan tashqari, 14 milliard dollarlik xorijiy investitsiyalar hisobiga 12 gigavattli 31 ta elektr stansiyasi barpo etilmoqda. Bu yil Navoiy, Buxoro, Namangan, Toshkent va Qashqadaryoda 2,6 gigavatt quvvatlar tarmoqqa ulanadi. Umuman olganda, muqobil energetikani rivojlantirish hisobiga joriy yilda “yashil” energiya-ning generatsiyadagi ulushi 30 foizga yetadi.

— Biz bu ishlarni xalqimizga munosib turmush sharoiti hamda sanoatimiz rivoji uchun uzluksiz energiya ta‘minotini yaratish maqsadida amalga oshiryapmiz. Bu hamma hududlarda yaxshi an‘anaga aylanib ulgurd, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Jizzax viloyatida ham bunday loyihalar ko‘p. Ulardan biri — G‘allaorol tumanida barpo etiladigan, metallurgiyaga ixtisoslashgan sanoat zonas. U yerda 500 million dollarlik 7 ta loyiha amalga oshiriladi. Jumladan, armatura, po‘lat sharlar, quvurlar, avtomobil kuzovi va maxsus texnikalar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Hududda bojxona ombori ham bo‘ladi. Jami 5 mingta ish o‘rni yaratiladi.

Ikkinchi loyiha — Forish tumanida Xitoyning “China Poly Group” va “China Electric” kompaniyalari bilan hamkorlikda quriladigan quyosh elektr stansiyasi. 350 million dollarlik ushbu majmua 500 megavatt quvvatga ega bo‘ladi. Unda yiliga 1,1 milliard kilovatt soat “yashil” energiya hosil qilinadi. Bu 450 ming xonadonning energiya ta‘minoti yaxshilanadi, degani. Stansiyaning dastlabki 200 megavatt quvvati shu yil yakunida tarmoqqa ulandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ramziy tugmani bosib, mazkur ikki majmua qurilishini boshlab berdi.

Yaqin yillarda Sharof Rashidov, Forish va G‘allaorol tumanlarida yana 1 ming 660

megavattli issiqlik, shamol va quyosh elektr stansiyalari ham quriladi. Bular aholi turmush darajasini oshirib, iqtisodiyot rivojiga qo‘shimcha turki bo‘ladi.

So‘ng Prezident Shavkat Mirziyoyev “BMB Holding” kompaniyasining Sharof Rashidov tumanidagi agrologistika majmuasini borib ko‘rdi.

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi eksportining salohiyati yuqori. Bunda mahsulotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va sotishning barcha bosqichlarini qamrab olgan agrologistika markazlari juda muhim.

“BMB Holding” kompaniyasining o‘tgan yil dekabrda ishga tushgan majmuasi ham shulardan biri. Bu loyihaning umumiy qiymati 57 million dollardan ziyod. Majmuada yiliga 10 ming tonna qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash hamda 8 ming tonnani birlamchi qayta ishlash imkonini mavjud. 180 kishi doimiy ish bilan ta‘minlangan.

Davlatimiz rahbari korxonadagi ish jarayonini va eksportga tayyor mahsulotlarni ko‘zdan kechirdi.

Logistika markaziga meva-sabzavot mahsulotlari Jizzax viloyati va qo‘shni hududlardan olib kelinadi. O‘tgan yili “BMB Holding” tizimidagi agroklaster tomonidan 1 ming 200 dan ortiq fermerdan shartnoma asosida 16 turdagi 52 ming tonadan ortiq hosil olindi.

Joriy yilda Sayxunobod tajribasi asosida 2 ming 485 nafar aholi tomoqalari bilan kooperatsiya asosida shartnoma qilinadi. Shuningdek, 4 mingga yaqin fermer xo‘jaligining 14 ming 500 gektar maydonida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiriladi. Buning natijasida klaster negizida qo‘shimcha 32 mingtadan ortiq mavsumiy ish o‘rni yaratiladi.

Majmuada fitosanitar va sanitar-epidemiologik sertifikatlash laboratoriyasi, bojxona hamda bank filiallari, xostel tashkil etilgan. Laboratoriya Rossiya, Xitoy, AQSH va Germaniya davlatlaridan keltirilgan 34 ta eng zamonaviy uskuna bilan jihozlangan.

Karantin xodimlari shu yerning o‘zida mahsulotlarni ko‘rkanidan o‘tkazadi. Muhimi, ular tomonidan rasmiylashtirilgan fitosanitar sertifikat 119 ta davlat tomonidan tan olinadi.

Bu kabi imkoniyatlarning mavjudligi korxonaning eksport salohiyati va geografiasini oshirmoqda. Bugungacha Qozog‘iston, Pokiston, Rossiya Federatsiyasi va Xitoyga qariyb 43 million dollarlik mahsulot yuborildi. Joriy yil yakuni bo‘yicha eksport hajmini 58 million dollarga yetkazish reja qilingan.

Prezidentimiz bunday agrologistika markazlarini boshqa hududlarda ham ko‘proq tashkil etib, ularga muayyan dalalarni va mahallalarni birliktirish zarurligini ta‘kidladi. Bu tadbirkor uchun yetarli mahsulot, aholi uchun kafolatli xarid imkoniyatini beradi.

Ma‘lumot o‘rinda ta‘kidlash lozim, 2017-yilda tashkil topgan kompaniya tarkibida bugun 4 ta ko‘shma va 26 ta sho‘ba korxona mavjud. Iqtisodiyotning turli jabhalarida qariyb 1 milliard 500 million dollarlik investitsion loyihalar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston va Italiya o‘rtasidagi “BMB Opera Zafferano” qo‘shma korxonasi tomonidan 400 gektarlik za‘faron plantatsiyasi yaratildi. Yetishtirilgan mahsulotlar USDA ORGANIC sertifikatiga ega bo‘lib, Italiya, Avstriya, Gollandiya, Fransiya, Janubiy Koreya, Saudiya Arabistoni kabi davlatlarga eksport qilinmoqda. AQSH bozoriga kirish uchun ham FDA ruxsatnomasi berilgan.

Kelgusi uch yilda bu loyihaning qiymati 80 million yevroga yetkazilib, za‘faron yetishtirish hajmi 1,8 tonnadan 20 tonnaga oshiriladi. Davlatimiz rahbari bu rejalarni ma‘qullab, za‘faron maydonlari va eksportini ko‘paytirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Jizzax shahrida barpo etilgan Kibersport arenasida yoshlar bilan uchrashdi.

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 16-noyabrda qaroriga muvofiq, kibersport turlari ommalashtirilmoqda. Jumladan, Jizzax

shahrida sobiq tennis korti binosi o‘rinda kibersport arenasini tashkil etildi. 1 ming 200 tomoshabinga mo‘ljallangan asosiy zal zamonaviy holatga keltirildi. Shuningdek, bu yerda 12 ta o‘quv va mashg‘ulot xonalari, majlislar zali, 35 o‘rinli yotoqxona hamda kafeteriya mavjud.

Arena universal bo‘lib, boks, kurash, basketbol, stol tennis, shaxmat, shashka bo‘yicha xalqaro musobaqalarni, “Besh tashabbus” tadbirlarini ham o‘tkazish mumkin. Majmua tarkibidagi IT akademiasida yoshlarga kompyuter savodxonligi, xorijiy tillar, grafik dizayn, dasturlash, robototexnika va boshqa yo‘nalishlar o‘qitiladi. Bu sohada mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha “Muhammad al-Xorazmiy vorislari” tizimini amalga oshirish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari bu yerda kibersport, shaxmat, “Zakovat” intellektual o‘yinlari, basketbol musobaqalarini kuzatdi, yoshlar bilan muloqot qildi.

— Bugun Jizzaxning ko‘p joylarida bo‘ldik, yangi loyihalarni boshladik. Albatta, viloyatning iqtisodiyoti, bunyodkorlik ko‘lami avvalgidan ancha yuqori. Lekin eng muhim yutuq — yoshlarimizning harakati, niyati, o‘ziga ishonchi. Biz belgilab olgan Strategiyani, katta marralarni shunday yoshlar bilan amalga oshiramiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Tashrif davomida mutasaddirlar arena faoliyatiga doir rejalar xususida so‘zlab berdi. Xususan, jahon chempionatlarida ishtirok etish uchun turli darajadagi turnirlar g‘oliblari bilan do‘stlik musobaqalari o‘tkaziladi.

Har bir yo‘nalish bo‘yicha iqtidorli yoshlarni aniqlab, ularni professional sportga yo‘naltirish yuzasidan ko‘rsatmalar berildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Jizzax viloyatiga tashrifi davom etmoqda.

**Ziyoulla JONIBEKOV,
Ikrom AVNALBOYEYEV,
Abdualol QAYUMOV,
O‘ZA muxbirlari**

Shukuh

Poklanish, mehr-oqibat, insonparvarlik, bag‘rikenglik, ezgulik va saxovat oyi bo‘lgan muborak Ramazonning ham so‘nggi kuni qoldi. Hayit arafasidagi ushbu qutlug‘ pallalarda hammaning ko‘ngliga shunday fayzli va barakotli kunlarga yetkazgani uchun Parvardigorga shukronalik tuyg‘usi ingan. Barchaning qalbidan shunday saodatli oylarning yana ko‘pini ko‘rish umidi joy olgan. Qalblarga imon nurini baxsh etadigan ushbu ulug‘ ayyomni yurtimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik muhitida, oilalar bag‘rida, el-yurt davrasida kutib olayotgan har bir yurtdoshimiz buning uchun Haq taolaga cheksiz shukrona keltiradi.

Shovosil ZIYODOV,
Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi direktori

Joriy yil O‘zbekiston ahli muborak Ramazonni o‘zgacha, odatdagidan ko‘tarinki ruhda kutib oldi. Chunki bu muqaddas oy arafasida xalqimiz Xalqaro xotin-qizlar kunini nishonlagan bo‘lsa, Ramazon kirib kelganidan keyin Navro‘z umumxalq bayramini tantana qildi.

8-mart bayrami Ramazon oyidagi xayrli tadbirlarga tayyorgarlikning deyochoasi bo‘ldi, desak yangilishmagan bo‘lamiz. Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan onaxonlarimiz va opa-singillarimiz sog‘lig‘ini mustahkamlash,

SAXOVAT, EZGULIK VA POKLIK BAYRAMI

yurtimizda Ramazon muhiti qaror topganining alomatini ko‘ramiz: “Bugun obi rahmat yomg‘irlari bilan osmondan rizq-u ro‘z, qut-baraka yog‘moqda. Hammamiz bu holatni shukronalik bilan qabul qilamiz”.

Ha, Ramazon faqat saxovat va poklanish emas, baraka oyi hamdir. Bu oyda islom ummati ibodat, sabr, saxovat va riyozatga boshqa oylardagiga qaraganda, kattaroq va kuchliroq mas’uliyat bilan yondashadi. Kundalik ibodatlar barobarida Qur‘on tilovati, xayrli amallar va ehsonni ko‘paytiradi, zakot beradi. Shu sababli musulmonlar Ramazon oyini o‘zgacha intiqlik bilan kutadi, uni boshqacha taqvo bilan o‘tkazadi. Bu oyda ko‘pchilik shu choqqacha bosib o‘tgan hayot yo‘li to‘g‘risida kengroq mushohada qiladi. Ramazonida Yaratganga qalbini taslim etib, kunduzlari yeyish-ichishdan, turli ko‘ngilxushliklardan voz kechgan inson irodasini chinqitirib, toblab boradi.

Oziq-ovqat va ichimlikdan tiyilishda katta hikmat bor. Inson bir parcha nonga, bir ho‘plam suvga zor bo‘lganlarning ahvolini ich-ichidan his etadi. Bu tuyg‘u unda rahm-shafqat, saxovat va bag‘rikenglik fazilatlarini rivojlantiradi. Inson qo‘li ochiqroq bo‘la boradi, miskinlarga

yashash joyida) hozir bo‘lsa, ro‘zasini tutsin. Kim bemor yoki safarda bo‘lsa, (tuta olmagan kunlarining) sanog‘i boshqa kunlardandir. Alloh sizlarga yengillikni istaydi, og‘irlikni xohlamaydi. Bu — hisobni to‘ldirishingiz hamda hidoyatga boshlagani uchun Allohga takbir (hamdu sano) aytishingiz uchundir. Shoyad shukr qilsalaringiz” (Baqara surasi, 185-oyat).

Haq taolo O‘zining abadiy mo‘jizasi, qiymatgacha insoniyatga hidoyat bo‘ladigan kitobi bo‘lmish Qur‘oni karimni nozil qilish vaqti etib Ramazoni sharifini ixtiyor etganining o‘zi bu oyingning fazilati naqadar yuksak ekanini ko‘rsatadi. Ro‘za ibodatini ayni Ramazon ayida ado etishni farz qilgani esa nur ustiga nur, fazilat ustiga fazilatdir. Bu oyingning birinchi o‘n kunligi — rahmat, ikkinchisi — mag‘firat, oxirigisi — jahannamdan xalos bo‘lish davri ekani payg‘ambarimizning ko‘plab hadislarida bayon etilgan.

Imom Buxoriy va Imom Muslim Abu Hurayra roziyallohu anhudan payg‘ambarimizning quyidagi so‘zlarini keltirilgan:

“Qodir Alloh aytadi: “Odam bolasining har qanday ishi uning o‘zi uchun, faqat ro‘za mustasno, ro‘zani Men uchun tutadi,

uning ajrini ham O‘zim beraman”. Ro‘za qalqondir, uring ajrini ham O‘zim beraman”. Ro‘za qalqondir, biringiz ro‘za tutsa, har qanday yomonlikdan saqlansin va ovozin balandlatmasin. Kimdir unga yomon gapirsa yo janjallashmoqchi bo‘lsa, “Men ro‘zadorman!” desin”.

uning ajrini ham O‘zim beraman”. Ro‘za qalqondir, sizlardan biringiz ro‘za tutsa, har qanday yomonlikdan saqlansin va ovozin balandlatmasin. Kimdir unga yomon gapirsa yo janjallashmoqchi bo‘lsa, “Men ro‘zadorman!” desin”.

Ramazon nafsi jilovlash oyoidir. Ro‘za tutgan inson tashqi olamida oziqda saqlash, fe‘lini yaxshilash, tili va ko‘zini tiyishdan tashqari ichki dunyosini ham poklaydi — tubanlik va razolatga boshlovchi o‘y-xayollardan chekinadi. Riyo qilmaydi, dili va ruhini tarbiyalaydi. Shunday gilmass ekan, uning ro‘zasi quruq ochlik va tashnalik bilan o‘ziga jayr yetkazishdan boshqa narsa bo‘lmay qoladi. Alloh qalbi toza bo‘lmagan bandaning

Taraqqiyot rishtalari

O‘ZBEKISTON VA QOZOG‘ISTON: IQTISODIY HAMKORLIK KO‘LAMI HAM, IMKONIYATLARI HAM KATTA



Obid HAKIMOV,
Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar
markazi direktori

Davlatlarimiz o‘rtasida Abadiy do‘stlik to‘g‘risida shartnoma (1998-yil 31-oktabr), Strategik sheriklik to‘g‘risida shartnoma (2013-yil 14-iyun), Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risida shartnoma (2022-yil 22-dekabr), Davlat chegarasini demarkatsiya qilish to‘g‘risidagi shartnoma (2022-yil 22-dekabr) ikki tomonlama o‘zaro hamkorlikning asosiy xalqaro-huquqiy hujjatlari hisoblanadi.

O‘zaro munosabatlarning ildam rivojlanishida davlat rahbarlarining muntazam muloqoti muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston Prezidenti 2017-yil mart oyida o‘zining ilk davlat tashrifini Qozog‘istonga amalga oshirgani diqqatga sazovor. Tashrif chog‘ida 13 ta hujjat, jumladan, “2017-2019-yillarga mo‘ljallangan iqtisodiy hamkorlik strategiyasi” imzolandi, ikki mamlakatdan 500 dan ziyod tadbirkor qatnashgan sanoat yarmarkasi va biznes-forum o‘tkazildi, shartnoma va investitsiya bitimlari imzolandi.

2019-yil 14-15-aprel kunlari Qozog‘iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning O‘zbekistonga davlat tashrifi doirasida O‘zbekistonda Qozog‘iston yilining tantanali ochilish marosimi o‘tkazildi. Prezidentimizning 2021-yil 5-6-dekabr kunlari Qozog‘istonga navbatdagi davlat tashrifi davlatimiz rahbarining prezidentlik lavozimiga qayta saylanganidan keyingi xoriga ilk tashrifi bo‘ldi. Qozog‘iston Prezidentining 2022-yil 21-22-dekabr kunlari O‘zbekistonga davlat tashrifi O‘zbekiston — Qozog‘iston strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari yanada chuqurlashtirishda alohida turki bo‘ldi.

Ikki davlat rahbarlarining oliy darajadagi muntazam tashriflari turli sohalardagi hamkorlikni chuqurlashtirishga doimiy intilishdan dalolat beradi. Mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik nafaqat davlat rahbarlari darajasida, balki MDH, TDT, OHICHA, SHHT kabi ko‘p tomonlama formatlar doirasida ham amalga oshirilmoqda. Hukumat delegatsiyalarining o‘zaro tashriflari tez-tez uyushtirilmoqda. Ikki mamlakat hududlari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik va to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqalarni kengaytirish bo‘yicha kelishuvlarga erishilgan aholida ta’kidlash joiz. Hududlararo hamkorlik formatlari muntazam ravishda o‘tkazib kelinmoqda.

O‘zaro savdo dinamik ko‘rsatkichlarda

Qayd etish joiz, Markaziy Osiyo aholisining 70,1 foizi Qozog‘iston va O‘zbekistonda yashasa, bunda jami YIMning 76,7 foizi va mintaq mamlakatlari o‘zaro ichki savdosining 77,6 foizi aynan shu ikki davlat hissasiga to‘g‘ri keladi.

O‘zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan tashqi savdo aylanmasida Qozog‘iston 2023-yilda 7 foiz ulush bilan uchinchi, mamlakatimizning MDH davlatlari bilan savdosida 21,4 foiz bilan ikkinchi, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdoda 61,1 foiz ulush bilan birinchi o‘rinni egalladi.

2016-yildan 2023-yilgacha bo‘lgan davrda davlatlarimiz o‘rtasidagi savdo hajmi 2,4 barobar — 1,8 milliard dollardan 4,4 milliard dollarga, jumladan, eksport 1,6 barobar — 0,9 milliard dollardan 1,4 milliard dollarga oshdi. 2020-yilda koronavirus pandemiyasi tufayli tovar ayiriboshlash hajmi qariyb 10 foizga — 3,01 milliard dollarga, eksport esa 0,91 milliard dollarga kamaydi.

O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi o‘zaro savdo 2023-yil yakunlariga ko‘ra, quyidagi yiriklashtirilgan tovar guruhlari bo‘yicha amalga oshirilgan:

— O‘zbekistonning Qozog‘istonga eksporti: mashina va transport uskunolari — 645,3 million dollar (umumiy eksport hajmining 47 foizi), sanoat mahsulotlari — 200,5 million dollar (14,6 foiz), oziq-ovqat mahsulotlari — 184 million dollar (13,4 foiz), kimyoviy mahsulotlar va ulardan tayyorlangan buyumlar — 90 million dollar (6,6 foiz), to‘qimachilik va kiyim-kechak — 82,8 million dollar (6 foiz), shuningdek, xizmatlar — 138,6 million dollar (10,1 foiz);

— Qozog‘istondan O‘zbekistonga import: oziq-ovqat mahsulotlari — 1398,3 million dollar (umumiy import hajmining 46,2 foizi), sanoat

mahsulotlari — 715,2 million dollar (23,6 foiz), energiya tashuvchilar va neft mahsulotlari — 254,4 million dollar (8,4 foiz), kimyoviy mahsulotlar va ulardan tayyorlangan buyumlar — 189,1 million dollar (6,2 foiz), mashina va uskunalar — 103,4 million dollar (3,4 foiz).

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston va Qozo-g‘istondan jami eksport tarkibida asosiy ulushni (50-60 foiz) xomashyo mahsulotlari (mineral mahsulotlar, rangli va qimmatbaho metallar va boshqalar) egallaydi, ular asosan, uchinchi mamlakatlarga yetkazib beriladi.

Shu bilan birga, xomashyo mahsuloti hisoblanmagan tovar turlari, ayniqsa, ikki mamlakatda talabgir bo‘lgan tayyor mahsulotlar bilan o‘zaro savdoni o‘stirish bo‘yicha katta istiqbollar mavjud.

Xususan, 2023-yilda O‘zbekiston Qozog‘istonga 188,8 mil-lion dollarlik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yoki ularning jami eksporti hajmining 9,4 foizini, 480,2 million dollarlik 37 ming 977 dona yengil avtomobil yoki jami avtomobil eksportining 95 foizini, 95,5 million dollarlik elektrotexnika mahsulotlarini eksport qildi.

Qayd etish joizki, ikki davlat hukumatlari 2027-yilga borib, oziq-ovqat, to‘qimachilik, avtomobil, elektrotexnika, qora metallar, neft-gaz mahsulotlarini yetkazib berish orqali o‘zaro tovar ayiriboshlash hajmini 10 milliard dollargacha o‘stirish vazifasini qo‘ygan. 2023-yil

2016-yildan 2023-yilgacha bo‘lgan davrda Markaziy Osiyoda mintaqalararo investitsiyaviy aloqalar kuchaydi. Yevroosiyo taraqqiyot banki ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi 7-8 yil ichida mintaqamiz mamlakatlari o‘rtasidagi o‘zaro to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar hajmi yiliga o‘rtacha 9,2 foizga oshib bormoqda. Mintaqaga o‘zaro to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar hajmi (2023-yilning birinchi yarmida) 1,1 milliard

“O‘zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan tashqi savdo aylanmasida Qozog‘iston 2023-yilda 7 foiz ulush bilan uchinchi, mamlakatimizning MDH davlatlari bilan savdosida 21,4 foiz bilan ikkinchi, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdoda 61,1 foiz ulush bilan birinchi o‘rinni egalladi.”

2017-2023-yillarda O‘zbekistonning Qozog‘iston bilan tashqi savdo aylanmasi ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.
Savdo hajmi (million dollar.)								
Tashqi savdo aylanmasi	1 898,9	2 055,7	2 919,6	3 335,0	3 005,8	3920,6	4651,1	4398,9
Eksport	945,0	1057,6	1352,2	1393,0	908,4	1178,4	1407,5	1372,5
Import	953,9	998,2	1567,4	1942,0	2097,3	2742,2	3243,5	3026,4
Saldo	-8,9	59,4	-215,3	-549,0	-1 189	-1563,8	-1836,0	-1653,9
O‘zbekiston tashqi savdosi umumiy hajmida Qozog‘istonning ulushi (foizda)								
Tashqi savdo aylanmasi	7,8	7,7	8,7	8,0	8,3	9,3	9,2	7,0
Eksport	7,8	8,4	9,7	8,0	6,0	7,1	7,1	5,6
Import	7,9	7,1	8,1	8,0	9,9	11,6	10,5	7,9

Manba: O‘zbekiston statistika agentligi.



mart oyida tashkil etilgan UzKazTrade qo‘shma tashqi savdo kompaniyasi bunga hissa qo‘shishni maqsad qilgan, uning ta’sischilari “QazTrade Savdo siyosatini rivojlantirish markazi” AJ va “UzTreyd” AJ hisoblanadi. Mazkur kompaniya faoliyati ikki mamlakat bozorlarida tovarlarni sotish uchun savdo onlayn-platformasini o‘z ichiga oladi. UzKazTrade faoliyati davomida jami 1,3 million dollarlik mahsulotni eksport qilishga ulgurdi.

Mintaqaviy investitsiyalar

Markaziy Osiyo mamlakatlari tomonidan to‘plangan kiruvchi xorijiy investitsiyalar hajmi 211 milliard dollarni tashkil etadi. Yevroosiyo taraqqiyot banki (YOTB) ma’lumotlariga ko‘ra, 2010-yildan 2021-yilgacha mintaqada to‘plangan kiruvchi investitsiyalar hajmi 2,1 barobar, 2000-yildan buyon esa 17,2 barobar o‘sgan. Shu bilan birga, mintaqamiz mamlakatlarga tushgan (2021-yil) va to‘plangan 211,4 milliard dollar investitsiyaning 163,3 milliard dollari (77 foiz) ikki mamlakat — Qozog‘iston va O‘zbekiston hissasiga to‘g‘ri keladi.

dollarni tashkil etdi, bu 2016-yilgi ko‘rsatkichdan 1,8 barobar ko‘p. O‘zaro kapital qo‘yilmalarining asosiy yo‘nalishlari: xomashyo tarmoqlari (31,7 foiz), qayta ishlash sanoati (25 foiz) va moliyaviy xizmatlar (21,9 foiz). O‘zaro investitsiyalarda qazib oluvchi tarmoqlarning ulushi kamaydi.

Mintaqadagi asosiy ichki investorlar Qozog‘iston va O‘zbekiston hisoblanadi. Qirg‘iziston 63 foizlik ulush bilan mintaqada o‘zaro investitsiyalarning asosiy oluvchisi sanaladi. Undan keyingi o‘rinlarda O‘zbekiston (24 foiz) va Qozog‘iston (11 foiz) turadi. Mintaqadagi yirik loyihalar Qozog‘istonning “Kaz Minerals”, “United Cement Group”, “Xalq banki” va “Ishonchli kapital” hamda O‘zbekistonning “Artel” va “Alliance Textile” kompaniyalari tomonidan amalga oshirilmoqda.

Samarali loyihalar

Davlatlarimiz o‘rtasidagi investitsiyaviy hamkorlik yuqori sur‘atlarda o‘smoqda. Xususan, O‘zbekistonda Qozog‘iston kapitali ishtirokidagi korxonalar soni 2019-yil boshidan (510 ta) buyon 2,4 barobar ko‘payib, bugun-gi kunda 1200 dan oshdi. 2023-yilda qo‘shni davlatning mamlakatimizga kiritgan invest-



siyalari hajmi 197,7 million dollarni (jami investitsiyalar hajmining 1,2 foizi) tashkil etdi, shundan 45 foizi to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalardir. Investitsiyalarning 46 foizi ishlov berish sanoatiga, 30 foizi uy-joy qurilishiga, 9 foizi moliya va sug‘urta faoliyatiga, 8 foizi ulgurji va chakana savdoga, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta’mir-lashga, 4 foizi qishloq xo‘jaligiga va 3 foizi ko‘chmas mulk operatsiyalariga yo‘naltirilgan.

Hozir Qozog‘istonning O‘zbekiston bilan investitsiyaviy aloqalari umumiy qiymati 400 million dollarlik 12 loyihani o‘z ichiga oladi, ulardan to‘qiztasini (285 million dollarlik) Qozog‘iston tomoni amalga oshirmoqda. Investitsiyalarning samqoqli ulushi Qozog‘istonning “Xalq banki” tomonidan 100 million dollardan

Transport-logistika masalalari

Ikki mamlakatning transport sohasidagi hamkorligi, jumladan, xalqaro transport yo‘laklari va xalqaro transport infratuzilmasini yaratish bo‘yicha bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda. Bu eksport mahsulotlarini ikki mamlakat hududi bo‘ylab uchinchi davlatlarga yetkazishda transport xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Hamkorlikni rivojlantirish va qo‘shimcha qiymat zanjirini mustahkamlash maqsadida O‘zbekiston va Qozog‘iston 2023-yil noyabr oyida Hukumatlararo bitim tuzib, ikki davlat chegarasida “Atameken” (Qozog‘iston) va “Guliston” (O‘zbekiston) chegara o‘tkazish punktlari yaqinida “**Markaziy Osiyo**” xalqaro sanoat kooperatsiyasi markazini tashkil etish bo‘yicha kelishuvga erishdi. Uning texnik ishga tushirilishi 2026-yilning to‘rtinchi choragiga to‘g‘ri kelishi kutilmoqda. Markazning rasmiy ochilishi 2027-yilning birinchi yarmida o‘tkazilishi rejalashtirilgan. Ikki respublika hukumatlari loyihaning birinchi bosqichida kamida 70 million dollar investitsiya jalb etishga umid qilmoqda. Uning asosida tomonlar import o‘mini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishni rejalashtirgan.

Shuningdek, O‘zbekiston — Qozog‘iston chegarasidagi “G‘isht ko‘priki” — “Jibek joli” o‘tkazish punkti hududida “**Markaziy Osiyo**” xalqaro savdo-iqtisodiy hamkorlik markazi qurilishi ko‘zda tutilgan. Markazning umumiy maydoni 400 gektar bo‘lib, o‘tkazish qobiliyati — har ikki yo‘nalishda kuniga 35 ming kishi va 5 mingta yuk mashinasi. Markaz davlatlarimiz o‘rtasida qo‘shma investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun yirik sanoat va savdo-logistika maydoniga aylanishi ko‘zda tutilgan.

Tranzit-transport sohasidagi o‘zaro hamkorligimiz katta istiqbolga ega. Temir yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish, avtomobil o‘tkazish punktlarini modernizatsiya qilish bo‘yicha yangi yirik qo‘shma loyihalarini amalga oshirish ko‘zda tutilgan, yuklarni tashish uchun qulay tarif siyosati shakllantirilgan. Yuk tashish ko‘rsatkichlari o‘sib bormoqda. Xususan, temir yo‘l orqali jami yuk tashish hajmi 2023-yilda 17,2 foizga o‘rtib, 31,4 million tonnani tashkil etdi. 2022-yilda bu ko‘rsatkich 26,8 million tonnaga teng bo‘lgan edi.

Istiqbolli yo‘nalishlar

O‘zbekiston va Qozog‘iston Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari ishtirokida ham ikki tomonlama, ham ko‘p tomonlama formatlarda iqtisodiy hamkorlikni sezilarli darajada kengaytirish uchun foydalanilmagan katta salohiyatga ega. Xususan, Xalqaro savdo markazi (ITC) metodologiyasi bo‘yicha olib borilgan hisob-kitoblar mintaq mamlakatlarining o‘zaro savdoda 1,2 milliard dollardan ziyod miqdordagi amalga oshirilmagan eksport salohiyati mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Har ikki davlatda yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va xomashyo bo‘lmagan mahsulotlar eksporti ulushini ko‘paytirish bo‘yicha vazifalar belgilangan. Shu munosabat bilan mavjud resurs bazasi va iqtisodiyotlar o‘zaro birbirini to‘ldirishini hisobga olgan holda, ishlov beruvchi sanoat sohasida qo‘shma sanoat klasterlari tashkil etish hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishi hisoblanadi.

Sanoat kooperatsiyasining istiqbolli sohalariga iqtisodiyotning ishlov beruvchi sektori, jumladan, mashinasozlik, agrar sanoat kompleksi, yengil sanoat, shuningdek, transport va logistika sohalari kiradi.

1. **Transport va logistika.** Davlatlarimiz muhim transport yo‘nalishlari, jumladan, Markaziy Osiyodan Xitoy, Rossiya, Yevropa va Janubiy Osiyoga tranzit yo‘llari chorrahasida joylashgan. Ikki mamlakat o‘rtasidagi transport yo‘laklari va infratuzilmani rivojlantirish, shuningdek, transport tarmog‘ini modernizatsiya qilish va kengaytirish bo‘yicha qo‘shma loyihalar savdo aylanmasi va iqtisodiy hamkorlikni sezilarli darajada kuchaytirishi mumkin.

Transport sohasida hamkorlikni kengaytirish yagona tarif siyosati bilan shimol-janub va ortga qaytuvchi yo‘nalishda to‘g‘ridan to‘g‘ri olib

boradigan transport marshrutlarini shakllantirishga xizmat qiladi va bu ikki tomonning tranzit salohiyatini oshiradi.

Ushbu sohada yangi eksport bozorlariga chiqish va foydalaniladigan transport yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilishga yordam berishi mumkin bo‘lgan muhim loyihalardan biri “Mozori-Sharif — Kobul — Peshova” yo‘nalishi bo‘ylab temir yo‘l qurilishi hisoblanadi. U “Termiz — Mozori-Sharif” temir yo‘lining davomi bo‘ladi. Ushbu Transaf‘on yo‘lagining qurilishi Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalarini qisqa va tejankor transport yo‘nalishi bilan bog‘lashga yordam beradi, bunda O‘zbekiston va Qozog‘iston temir yo‘l tarmoqlari faol ishtirok etadi, bu esa ularning rentabelligini oshiradi.

2. **Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoati.** Har ikki davlat qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun ulkan salohiyatga ega. Bu sohadagi hamkorlik qishloq xo‘jaligi texnologiyalari almashinuvi, agrar loyihalarga investitsiya kiritish, shuningdek, ikki mamlakat qishloq xo‘jaligi mahsulotlari uchun sotish bozorlarini kengaytirishni o‘z ichiga olishi mumkin. Bunga quyidagi vositalardan foydalanish yordam beradi:

— qo‘shma agrosanoat klasterlari — chegara hududlarida qishloq xo‘jaligi korxonalari, fermer xo‘jaliklari, qishloq xo‘jaligi texnikasi va uskunalari ishlab chiqaruvchilari birlashmalarini tashkil etish. Masalan, chegaradosh viloyatlarda ozuqa ekinlari yetishtirish bo‘yicha O‘zbekiston — Qozog‘iston qo‘shma klasterlarini yaratish mumkin, unda klaster ishtirokchilari o‘rtasida tajriba va resurslar almashinuvi ishlab chiqarish samaradorligi va bozorda raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi;

— har ikki mamlakat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini keyingi qayta ishlash, saqlash va sotish uchun jamlanishi mumkin bo‘lgan qo‘shma savdo maydonchalari yoki savdo markazlarini rivojlantirish. Masalan, chegarada qo‘shma ombor majmualarini tashkil etish mumkin, ularda mahsulotlar keyinchalik ham ichki bozorga, ham eksportga jo‘natilish uchun saralanadi va taqsimlanadi;

— veterinariya va biologik mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha qo‘shma korxonalar tashkil etish;

— texnologik almashinuv va o‘qitish. Ushbu yo‘nalish doirasida O‘zbekistondan Qozog‘istonga yoki u tomondan bizga kelgan mutaxassislar uchun seminarlar, mahorat darslari, o‘quv dasturlari va amaliyotlar tashkil etilishi mumkin.

3. **Inqirozni boshqarish va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash sohasida hamkorlik mexanizmini yaratish** quyidagi jihatlarni o‘z ichiga olishi mumkin:

— qishloq xo‘jaligi xatarlarini monitoring qilish va baholashning qo‘shma tizimlarini ishlab chiqish, ob-havo prognozlar, iqlim o‘zgarishi va oziq-ovqat xavfsizligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan boshqa omillar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni almashish orqali inqirozning erta oldini olish va unga qarshi choralar ko‘rish mexanizmini yaratish. Masalan, dehqonchilik va chorvachilikni kuzatish uchun qo‘shma meteorologik markazlar yoki tarmoqlar yaratish;

— inqirozni boshqarish bo‘yicha reja va tadbirlar ishlab chiqish inqirozli vaziyatlarga javob qaytarish uchun qo‘shma hozirlik, shuningdek, halokatli hodisalar yuz berganda tabiatni muhofaza qiluvchi va gumanitar tashkilotlar harakatini muvofiqlashtirishni o‘z ichiga oladi. Masalan, inqirozli vaziyatlarda aholini evakuatsiya qilish, vaqtinchalik boshpanalar tashkil etish, oziq-ovqat va suv bilan ta’minlash bo‘yicha qo‘shma treninglar va mashg‘ulotlar o‘tkazish;

— inqirozli vaziyatlar, jumladan, oziq-ovqat zaxiralarni yaratish, mahsulotlarni ko‘llab-quvvatlash va taqsimlash dasturlarini tashkil etish, shuningdek, gumanitar yordam sohasida birgalikda hamkorlik qilish orqali oziq-ovqat mahsulotlaridan barqaror foydalanishni ta’minlash. Masalan, qurg‘ochilik yoki boshqa inqirozli vaziyatlarda oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish va tarqatish uchun qo‘shma fondlar yaratish.

4. **Innovatsiyalar va yuqori texnologiyalarni joriy etish.** Iqtisodiyotning innovatsion va yuqori texnologiyali sektorlarini rivojlantirish ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik uchun qo‘shimcha turki bo‘lishi mumkin. Tajriba almashish, qo‘shma ilmiy tadqiqot loyihalarini, shuningdek, innovatsion klasterlar va texnoparklar tashkil etish har ikki iqtisodiyotni rivojlantirish va jahon bozorida ularning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Shuningdek, tajriba va texnologiyalar almashinuvi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlashga innovatsion yechimlar joriy etishni o‘z ichiga oladi. Masalan, bu chorva mollarini sun’iy urug‘lantirishning yangi usullarini tatbiq etish, qishloq xo‘jaligi ekinlarining zamonaviy navlaridan foydalanish, shuningdek, mahsulotlarni qayta ishlash va konservatsiya sohasida eng yangi texnologiyalarni joriy etish bo‘lishi mumkin.

Xulosa o‘rinda ta’kidlash joizki, O‘zbekiston va Qozog‘iston iqtisodiyoti va aholisi o‘sgani sari ikki mamlakat ichki bozorining umumiy salohiyati ham oshib boradi, ular o‘rtasidagi kooperatsiya aloqalari va o‘zaro savdoning kengayishi esa ularning investitsiyaviy jozibadorligini oshirib, ikki davlat iqtisodiyotining rivojlanish sur‘atlarini jadalashtirishga xizmat qiladi.

HAR BIR KO'CHATNING NARXI VA QIYMATI BOR

Gulichehra SATTOR qizi,
jurnalista



Ijtimoiy himoya

BU VATANDA AZIZ HAR JON, HAR INSON

Jonibek ALIJONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Shu sababli Konstitutsiyadagi “ijtimoiy davlat” tamoyilini inobatga olib, ijtimoiy qamrovni takomillashtirish maqsadida Prezidentning 2023-yil 1-iyundagi farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etilgan edi.

Shuningdek, 2023-yil oktabrdan boshlab 28 ta tuman (shahar)da “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi hamda ularda 723 nafar ijtimoiy xodim 49 turdagi xizmatlarni ko‘rsatib kelmoqda.

— Qamrov ko‘lami kengligi va har bir kategoriya bilan sifatlari ishlashni ta‘minlash katta kuch va resurs talab qiladi. Shu sabab joriy yil mart oyidan boshlab 2-bosqichda yana 56 ta tuman (shahar) “Inson” markazlarida 1425 nafar ijtimoiy xodim ish boshladi, — deydi agentlikning Inson resurslarini boshqarish va ijtimoiy ish metodologiyasi boshqarmasi bosh mutaxassisi Bekzod Jumaboyev. — Hozirgi kunda xodimlar tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga eng qiyi tizimda, ya‘ni mahallalarda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatilmoqda. 2-bosqich ijtimoiy xodimlarning ish boshlashi xizmat ko‘rsatish ko‘lamini yanada kengaytiradi. Ya‘ni yana shuncha tuman (shahar) da ijtimoiy xizmatlar xonadonlarga kirib boradi — ehtiyojmand shaxslar viloyat yoki tuman markaziga borishi shart bo‘lmaydi, ijtimoiy xizmatlardan mahallaning o‘zida foydalanaveradi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar muammolari ijtimoiy xodimlar tomonidan kompleks o‘rganilib, baholashdan o‘tkazilgan holda ularni og‘ir vaziyatdan olib chiqishga yordamlashiladi. Ko‘rsatilayotgan xizmatlar orasida fuqaroning jamiyatdagi ijtimoiylashuvi, nogironligi bo‘lgan shaxslarning talabini ta‘minlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy himoya eng qiyi tizim — mahalla darajasida ko‘rsatilishidan eng manfaatdor toifa nogironligi bo‘lgan shaxslardir. Xo‘sh, yangi tuzilma va tizim ularning turmush tarziga qanday ta‘sir qildi? Masalan, bugungi kunda nogironligi bo‘lgan 129 ming shaxsning protez vositalariga (qo‘l-oyoq protezi, kreslo-aravacha, eshituv apparati, hassa, qo‘ltiq(yoq) ehtiyoji bor. Bu ehtiyoj qanchalik qamrab olinayapti? — 2023-yil davomida 47 milliard so‘mga 47 ming 600 dona (jami ehtiyojning 37 foizi) maxsus moslama va vosita xarid qilindi, — deydi

Maqsad aniq, resurs mavjud. Xo‘sh, natijachi? Nuqsoni bor bolalar bilan ishlash bir kunlik jarayon emas, balki yillarni talab etadi. Biroq to‘liq tuzalish ham kafolatlanmagan — bu bir necha ichki-tashqi omillarga bog‘liq. Lekin oz bo‘lsa ham natijaga erishish — bunday bolalarning jamiyatga qo‘shilishiga katta hissa.



Farhod Komilov. — Ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalarida tashkil etilgan “G‘amxo‘rlik” guruhida bolalarning ta‘lim olishi bepul amalga oshiriladi.

Davlatimiz rahbari yaqinda Toshkent shahridagi nogironligi bo‘lgan bolalar uchun 1-sonli “Muruvvat” internat uyiga tashrif davomida endlikda “Muruvvat” uylari



Unga ko‘ra, endi bolalarning alohida ta‘lim ehtiyojlariga muhtojligi Ijtimoiy himoya milliy agentligining har bir hududiy boshqarmalari huzuridagi Pedagogik-tibbiy-psixologik komissiya (PTPK) tomonidan aniqlanadi. Bunda PTPK xulosasini olish uchun ariza bolaning ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan yashash joyidagi “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlariga yoki hududga biriktirilgan ijtimoiy xodimga taqdim etiladi.

Shuningdek, alohida ta‘limga ehtiyoji bo‘lgan, sog‘lig‘ida og‘ir darajada nuqsoni bor bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta‘lim tashkilotlarida qisqa muddatli “G‘amxo‘rlik” guruhlari faoliyati yo‘lga qo‘yilishi belgilangan. Bunday guruhlar maktabgacha ta‘lim tashkilotlari, maktab va maktab-internatlarda tashkil etiladi.

— “G‘amxo‘rlik” guruhlari ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalariga qabul qilinmaydigan, alohida ta‘limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarni qisqa muddatga (4 soatgacha) parvarishlash, ta‘lim-tarbiya berish hamda ularning jamiyatga moslashishiga ko‘maklashish maqsadida tashkil etiladi, — deydi agentlikning Voyaga yetmaganlar uchun ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish va monitoring qilish boshqarmasi mutaxassisi

zamonaviy reabilitatsiya jihozlari bilan ta‘minlanib, o‘z ishini yangi yo‘nalish asosida yo‘lga qo‘yishi, bolalar individual rivojlanish dasturlari asosida jamiyatga integratsiya qilinishi, barcha Muruvvat uylarida uchrashuv xonalari tashkil etilishi bilan bog‘liq konsepsiya bilan tanishgan edi.

Shuningdek, ushbu Muruvvat uylarida “Qo‘llab-quvvatlash klublari” tuzilib, malakali mutaxassislar vasiylarga nogironligi bo‘lgan bolani parvarishlash, oila sharoitida tarbiyalash va jamiyatga moslashtirish bo‘yicha bilimlar berishi, alohida ta‘limga tavsiya berilgan, og‘ir darajadagi kasalliklari mavjud bolalar uchun guruh tashkil etilishi va barcha hududiy reabilitatsiya markazlarida nogironligi bo‘lgan bolalar uchun shunday xizmatlar yo‘lga qo‘yilishi ta‘kidlandi.

Maqsad aniq, resurs mavjud. Xo‘sh, natijachi? Nuqsoni bor bolalar bilan ishlash bir kunlik jarayon emas, balki yillarni talab etadi. Biroq to‘liq tuzalish ham kafolatlanmagan — bu bir necha ichki-tashqi omillarga bog‘liq. Lekin oz bo‘lsa ham natijaga erishish — bunday bolalarning jamiyatga qo‘shilishiga katta hissa.

— Hozirgi kunda internat uyimizda nogironligi bo‘lgan 150 bola tarbiyalanayotgan bo‘lib, shundan 86 nafarini o‘g‘il bolalar, 64 nafarini qizlar tashkil etadi, — deydi



Qumqo‘rg‘on tumani Muruvvat internat uyi direktori Zulfiya Dagarova. — Ularning 30 nafari emaklovchi, 51 nafari yotoqdagi, 69 nafari esa yuradigan bola.

So‘nggi yillarda 26 o‘g‘il-qiz reabilitatsiya qilinib, ota-onalari bag‘riga qaytarildi. Reabilitatsiya davolash natijasida emaklab yurgan bolalari yurib ketganini, yotoq bo‘lgan bolalari emaklab, o‘z-o‘ziga xizmat qilayotganini ko‘rgan ota-onalarning quvonchini ifodalab berish qiyin.

Muassasada kasb-hunar to‘garaklari ham tashkil etilgan bo‘lib, unga jami 31 bola faol qatnashadi. Ular qo‘l mehnati, to‘quvchilik, tikuvchilik, rassomlik, somon bilan ishlash, musiqa, applikasiya yasash hamda gips yordamida kulollik sohalariga jalb qilinib, malakali pedagog xodimlar tomonidan kasb-hunar o‘rgatib kelinmoqda.

Ilgari Qumqo‘rg‘ondagi nogironligi bo‘lgan bolalar uchun Muruvvat internat uyi yopiq holatda bo‘lgan. Agentlik tashkil etilgandan buyon bu yerda ota-onalar istisnosiz muassasa tadbirlarida ishtirok etishi, farzandlari bilan vaqtini bemalol birga o‘tkazishi mumkin bo‘ldi. Xodimlarning oylik ish haqi oshirildi, yaqin hududda yashovchi nogironligi bo‘lgan bolalar uchun reabilitatsiya markazi tashkil etildi, “Qo‘llab-quvvatlash klubi” tuzilib, ularning ishlari muvofiqlashtirildi. Zulfiya Dagarovadan kamchiliklar haqida so‘radik.

— Internet orqali xorijiy mamlakatlardagi nogironligi bo‘lgan bolalarga yaratilgan shart-sharoitlarni o‘rganganimda, ularda yotoq bolalarni ko‘tarishda foydalaniladigan maxsus ko‘taruvchi moslamalar borligiga guvoh bo‘ldim, — deydi Z.Dagarova. — Xuddi shunday moslamalar bizning muassasalariga ham olib kelinsa, enagalarning ishi yengillab, bolalarning parvarishi yanada yaxshilanar edi.

Qumqo‘rg‘ondagi Muruvvat internat uyiining o‘zida o‘nlab tirishqoq bola bor. Ulardan biri Qodir Raimqulov hozir 19 yoshda. U hunar o‘rganish bilan bir qatorda o‘zini sportda ham sinab ko‘rgan. Natijalar yomonmas — sport musobaqalarining viloyat bosqichlarida kamida 2 yoki 3-o‘rinlarni qo‘lga kiritib kelyapti. “Mashg‘ulotlarni shunchalik ko‘pki, kunning qanday o‘tganini bilmay qolaman”, — deydi Qodir.

Qarshidagi nogironligi bo‘lgan bolalar uchun Muruvvat internat uyida bugungi kunda 300 ga yaqin tarbiyalanuvchi bor. Bu dargohdagi bolalarning ham salomatligida o‘zgarish bo‘layotganini eshitib, ko‘ngil yorishadi.

— Tibbiyot xodimlari tomonidan olib borilayotgan sog‘lomlashtirish, tarbiyachi-pedagoglar o‘tkazayotgan individual mashg‘ulotlar natijasida yotoqdagi 10 bola emaklab yurgan bo‘lsa-da, o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatadigan bo‘ldi, — deydi muassasa rahbari Shohruh Murtazov. — Emaklovchi 7 bolamiz yurib ketdi, ijtimoiy hayotga moslashtirilgan 8 tarbiyalanuvchimiz ota-onalari bag‘riga qaytarildi.

Muassasada bolalar uchun o‘ziga xos intiluvchanlik muhiti yaratilishiga harakat qilinyapti. Shu maqsadda Muruvvat uyida tikuvchilik, to‘qish, rassomlik, pazandachilik, kompyuter savodxonligi, karaoke va raqs kabi to‘garaklar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. To‘garaklarga 53 tarbiyalanuvchi faol qatnashadi.

— Bu bolalorlar ham o‘z tengdoshlari qatori hayotda o‘z o‘rnini topishga, hamma qatori teng huquqqa ega bo‘lishga haqli, shu sababli Qarshidagi Muruvvat internat uyida reabilitatsiya ishlari yo‘lga qo‘yilib, “Qo‘llab-quvvatlash klubi” tuzildi, — deydi muassasa xodimasi Shahlo Ro‘ziyeva.

Nutqida nuqsoni bor bolalar uchun tomat, denas terapiyalari, elektron aravachalar, yotoq bolalar uchun o‘tirishga qulay o‘rindiqdardan foydalanib olib borilgan muolajalar yaxshi samara bermoqda.

Bolalar bilan subbattashlar ekanmiz, ulardagi shijoat kishini hayron qoldiradi. Deyarli barchasi kun tartibini o‘zlariga rejalab olgan, o‘zi belgilagan grafikdan chiqmaydi — to‘garaklarga ham, reabilitatsiya jarayonlariga ham birday mas‘uliyat bilan qaraydi.

Ulardan biri Amina hozir 16 yoshda. U 2013-yildan buyon Qarshidagi Muruvvat internat uyida yashab kelyapti. Aminaning maqsadi — tezroq tuzalish va uyiga qaytib, kelajakdagi rejalarni amalga oshirish.

— Xudo xohlasa, 18 yoshga to‘lganimda onam o‘z uyimiza olib ketadi. Uyga qaytgach, mahallamizda imkoniyati cheklangan bolalar uchun bog‘cha ochmoqchiman, rejalarni hammasi tayyor, — deydi u.

Subbattashlar ekanisiz, bolalarning hammasi o‘z kelajak rejasiga egaligini ko‘rsatib.

Ijtimoiy himoyaning yagona tuzilmasini yaratish yo‘lidagi ilk maqsad turli ijtimoiy xizmatlar va tashkilotlarni yagona boshqaruv ostida birlashtirish edi. Buning amalga oshirilishi byurokratik tartiblarni qisqartirish, ijtimoiy xizmatlardan foydalanishni soddalashtirish va samaradorligini oshirish imkonini berdi. Shuningdek, yangi tuzilma mavjud resurslardan maqsadli foydalanish va turli bo‘limlar o‘rtasidagi muvofiqlashtirishni yaxshilaydi.

Ushbu sohada qilinishi lozim bo‘lgan ishlar hali talaygina. Sog‘lig‘ini, moddiy ahvolini ichki va tashqi ta‘silarga ko‘ra o‘nglay olmayotgan yurtdoshlarimiz ko‘p. Shu sababli aynan mazkur yo‘nalishda raqamlar bilan aldanib qolmasdan, xalqning ichiga yanada chuqurroq kirish, muammolarni yuzaga chiqarish va hal etish muhim vazifa. Chunki biz andishasi kuchli millatimiz — o‘zimiz uchun biror ehtiyojni taqillatib borish, dardimizni aytishdan tortinmayiz. Shuning uchun ijtimoiy himoya xodimlari bu yo‘lda yanada sobitqadam bo‘lishi, ayni muddod. Toki mamlakatimizda hech kim e‘tibordan chetda qolmasin, hech kim o‘zini vatan taraqqiyoti yo‘lida keraksiz his etmasin.

Keksalar o‘giti

Yoshi ulug‘lar bor go‘shaning fayz-u va tarovati o‘zgacha. Ayniqsa, urf-odatlarimiz va go‘zal qadriyatlarimizni o‘zida mujassam etgan mahallada nuroniylarning o‘rni bo‘lakcha. Ular bor joyda ahillik, totuvlik barqaror bo‘ladi, ko‘ngilsiz hodisalar ro‘y bermaydi.

102 yoshli Hamdam bobo Haydarov:

HAMMA HIKMAT ODDIYLIKDA



uchib, o‘zligidan, kindik qoni to‘kilgan yurt tuzidan osongina kechib, yosh joniga jabr qilmasin. Begunoh insonlarning uvuliga qolmasin, ziyrak bo‘lishin!

Axir yurtimizda yashash uchun hamma sharoitlar bor. Shunday ekan, o‘qi, ishla, izlan, yurt kez, kam bo‘lmaysan. Mayli, boy bo‘lma, katta tadbirkor yoki zo‘r olim bo‘lma, oddiyrina odamgarchiligi bor, mehnatkash, halol inson bo‘l, halovatda yasha!

Ota-bobalarimiz mehnatda, harakatda gap ko‘p deysishgan, qani endi hozir ham kuch-quvvatim bo‘lsa-yu, yana o‘quvchilarga saboq bersam, tomorqamda maza qilib yer chopdam, islohotlar qozonida qaynab, yangiliklar yaratsam, afsuski, yillar o‘z hukmini o‘tkazar ekan...

Shu muborak ramazon kunlarida aytgan so‘zlarim hech kimga malol kelmasin, ayniqsa, er yigitlar o‘z nomiga dog‘ tushirmasin, tan-u joni sog‘ bo‘lsin-u yurt koriga yarasin. Ilohim, obod va ozod, hur diyorimizga ko‘z tegmasin, yurtimizga g‘anim yaqinlashmasin, yo‘gchilik bo‘lmasin. Aziz va mukarram zaminimizda hamisha hamjihatlik, hamdo‘stlik va shod-u xurramlik hukm sursin. O‘zbek yigitlarining halol ishlab topkan pullari faqat yaxshi kunlar, yaxshiliklar va to‘ylarga buyursin!

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Gulichehra DURDIYEVA
yozib oldi.

Buxoro viloyatining Qorako‘l tumani Regi Haydar mahallasida yashovchi Hamdam bobo Haydarov yaqinda 102 bahorni qarshi oldi. Farzandlari va bir etak nevaralari yonida bag‘ri butun bo‘lib hayot kechirmoqda. Uzoq yillar o‘quvchilarga ta‘lim bergan otaxon hali biror marta betob bo‘lib shifoxonada yotmagan, hozir ham qadami tetik, fikri teran.

Yaqinda Buxoroga borganimizda Hamdam bobo bilan samimiy subbattashib, uning aqlni charxlaydigan sodda, samimiy, ammo zamirida bir olam ma‘no mujassam so‘zlarni yozib oldik. Zero, nuroniylar maslahati hech kimning ko‘ngliga og‘ir botmaydi. Ularning qalbidan chiqib, qog‘ozga ko‘chayotgan o‘g‘itlari negizida ko‘p hikmatlar bisyor. Eshitsangiz ko‘nglingiz yorishadi va “Qari bilganini pari

bilmas” naqli bejiz aytilmaganini yurakdan his qilasis.

— Zamonamizdan aylanay, qayerga borsang ko‘zing quvnaydi. Ko‘chalar ko‘rkam, atrof obod, saranjom-sarisha. Osmono‘par binolar ko‘pligini aytmayisizmi... Bizning davrimizda 4 qavatdan baland bino bo‘lmagan, Qorako‘l tumanida ham osmonga qarasang, hushing uchadigan baland qavatli uylar ko‘payib qoldi. Mana buni yangilik, yaratuvchanlik, desa bo‘ladi, — deydi Hamdam bobo. — Qo‘lni cho‘zsang o‘yga yetadigan zap zamonlar keldi. Ayniqsa, yoshlar uchun yaratilayotgan sharoitlarni ko‘rib aqling shoshadi. Shu imkoniyatlar sabab ularning qadamidani o‘t chaqnaydi, biri biridan uddaburon, shijoati, serg‘ayrat. Asosiysi, bilimli. O‘zga tillarda biyron so‘zlashiga havas qilmay

bo‘lmas. Yoshlarning yutuqlari, yaratayotgan kashfiyotlari haqida eshitib g‘ururlanadi kishi.

Bizning davrimizda chet elga borib-kelish shunchaki adog‘i yo‘q orzu edi. Yeyishga bir burda non topish mashaqqatini aytmayisizmi... Qiynalib o‘qiganmiz. Shuning uchun bugungi dorilamon kunlarning qadriga yetib, shukr qilib, yurtga sadoqatli bo‘lib yashashimiz kerak. Yoshlarning har sohada qo‘lga kiritayotgan zafarli yutuqlaridan ko‘nglim o‘sib, quvonam, ba‘zi bir o‘zbek yigitlarning o‘ziga xos bo‘lmagan qilmishlaridan ko‘nglim o‘rtanadi.

Guruch kurmaksiz bo‘lmaganidek, hozirgi yigitlarimiz orasida ishiyoqmas, tanballari, birovning puliga kun ko‘ruvchilari, moda uchun soqol qo‘yib, og‘zidan bodi kirib shodi

chiqib so‘kinib yuradiganlari ham bor.

Yigit nomiga dog‘ tushiradiganlari, ustidagi allambalo kiyimlarni kiyib, bo‘yniga zanjir-lar taqib, o‘zini dono biladiganlari ham ko‘payib ketdi. Ularni ko‘rib “he, sening ko‘ngil ko‘chandan o‘rgildim, nodon”, deya ichimda erkakcha so‘kib ham qo‘ydim. Kiyimi-ku, mayli, ayollarga o‘xshab tovusday tovlanib raqsga tushadiganlari chiqqan. Ularga qarab, o‘ynasang, erkak-chasiga bardam-bardam o‘yna, deging keladi.

Aslida, o‘zbekning o‘g‘lonlari sheryurak bo‘ladi. Chunki ularning boshidagi do‘p-pisi-yu belbog‘ining o‘zi yetti olamga mashhur. Er yigitga mayda qadam, mayda

9-aprel – Amir Temur tavallud topgan kun

AMIR TEMUR VA TEMURIYLARNING BUNYODKORLIK ISHLARI

yoxud “jannat ariqlari” bo‘ylab tashkil etilgan bog‘-saroylar sururi

Amir Temur o‘z zamonasining buyuk jahongiri bo‘lishi bilan birga, ulkan bunyodkori ham edi. Muhimi, bunyodkorlik va ma‘murchilik ishlari nafaqat ona Vatani Turonda, balki undan uzoqda ham muvaffaqiyatli yo‘lga qo‘yilgan. U buzilgan va talafotga yuz tutgan Bag‘dod shahrini qayta tiklash va obod etish, Ozarbayjondagi Darband qal‘asi va Boylakon shaharlarini qayta tiklash, yangi jamoat binolari qurish, Kobul vodiysi va Myg‘on cho‘llariga, Ozarbayjonning Ars daryosidan cho‘lga kanal qazib suv chiqarish ishlarini amalga oshirdi.

Ahtam O‘ROLOV,
Samarqand davlat
arxitektura-qurilish
universiteti professori,
arxitektura fanlari doktori

Xuroson hududidagi Balx shahrini qayta tiklash va obod etish, Xitoy chegaralarida joylashgan uzoq Ashpara shahri va Xumra qal‘asini ma‘mur etish kabi ulkan bunyodkorlik, ta‘mir va obodonchilik ishlari ham shular sirasiga kiradi. Temurning nigohi, mehri tushgan, ta‘mir va ma‘murchilikka muhtoj yerlar xoh Turkistonda bo‘lsin, xoh o‘zga yurtlarda uning himmati va e‘tibordan chetda qolmadi.

Musavvirlik, xattotlik yuksak
san’at darajasiga ko‘tarildi

Amir Temur davrida xalq amaliy san‘atining barcha turlari, ayniqsa, musavvirlik, xattotlik va naqqoshlik yuksak san‘at darajasiga ko‘tarildi. Samarqand va Shahrisabzda shaharsozlik, me‘morlik, san‘at, din, madaniyat, ilm-ma‘rifat tengsiz rivoj topdi. Peshtoq va gumbazlar, minoralar binolarga mahobat baxsh etuvchi asosiy shakllarga aylantirildi. Gumbazlarning ichki va tashqi ko‘rinishiga e‘tibor kuchaytirildi. Bino shakllari va qismlarini bir-biriga hamohang va uyg‘un, miqyosiy o‘lchovlarda shakllantirish avj oldirildi. Bu esa, o‘z navbatida, bino qismlari o‘lchovlarini mutanosib nisbatlarda bo‘lishini, bino esa me‘moriy jihatdan shaklan mukammal va go‘zal chiqishini ta‘minladi. Qurilish muhandisligi yutuqlari ham me‘morlikning yanada ravnaq topishiga yaqindan yordam berdi.

Temur davrida yaratilgan o‘zaro kesishuvchi ravoq g‘ishtli qurilmalar — “zarba linga” keng va baland xonalarning tomlarini yopishda, ularning ichki va tashqi ko‘rinishini mahobatli qilib ishlashda qo‘llanildi. Me‘morlikka tatbiq etilgan xattotlik san‘ati rivoj topishi esa bino va inshootlarning yanada muvaqqash va serjilo yaratilishini ta‘minladi. Naqshinkorlikda g‘irih, islamiy va husnixat bezaklaridan tashqari muqamas va kundal uslublaridan keng foydalanildi. Binolar yaqindan va yiroqdan ko‘rishga mo‘ljallangan naqshlar bilan bezatildi.

Amir Temur Markaziy Osiyoda qadimdan mavjud bo‘lgan madaniy an‘analarni rivojlantirgani holda, Samarqanddagi saroyiga san‘at, madaniyat, ilm-fan va hunar ahllarini yig‘ib, ularga keng ijodiy va moddiy imkoniyatlar yaratib berdi. Ko‘ksaroyda saltanatga xos ulkan ilmgoh — kutubxona tashkil etib, uni olimlar ixtiyoriga topshirdi. Samarqand me‘moriy majmuasini yakunlashga muvaffaq bo‘lgan.

Temuriy Husayn Boyqaro zamonasida (1469-1509) Hirot yanada yirik, boy va madaniy shaharga aylanadi. O‘sha davrda Hirot shahri va Xurosonning boshqa viloyatlarida 12 mingdan ortiq bino va inshoot quriladi. Shaxsan Husayn Boyqaroning o‘zi ham masjid, madrasayu xonaqoh, karvonsaroy, ko‘priklar, bog‘-rog‘lar bunyod etadi. Shuningdek, u ma‘rifatparvarlik va ma‘murchilik ishlarini amalga oshiradi. Husayn Boyqaro hayoti silliq kechmagan. U ko‘p xatoliklarga ham yo‘l qo‘yadi. Ammo uning insoniylik va ma‘naviy fazilatlari ko‘p bo‘lgan.

Hirot shahri Temur va Shohruh zamonasida, keyinchalik Husayn Boyqaro va uning do‘sti Alisher Navoiy davrida me‘morlik, san‘at va madaniyatning yirik markazlaridan biriga aylanadi.

Sharq xalqlari tabobatga oid turli muassasalardan juda qadim zamonlardan boshlab foydalanib kelgan.

Temur davriga kelib, chorbog‘ uslubii yangicha ma‘no kasb etdi. Endi u qo‘rg‘oncha ichiga yonma-yon joylashtirilgan to‘rtta mo‘jaz bog‘ emas, balki dunyoning to‘rt tarafiga ketgan “jannat ariqlari” bo‘ylab tashkil etilgan ko‘p qismli istirohat bog‘-saroylariga aylandi. Bog‘ning tarkibiy qismlari — chorchaman, xiyobon, hovuz-favvoralar, saroy va ko‘shklar, shiyponlar va ularning joylashishi joyning past-balandligiga, ariqlar yo‘nalishiga qarab aniqlandi. Bog‘lar taxminiy shakllantirilmay, puxta o‘ylanib, me‘mor va bog‘bonlar tuzgan reja va tahlillar asosida yaratildi.

Bog‘lardagi daraxt va gullar, butalarni tanlash va ekish, qurilishlarga oroyish berish, ayniqsa, favvora va shalolalar, saroy va ko‘shklar qurish ishlariga katta ahamiyat berildi. Ulardagi daraxtlar turini tanlash, bir-biridan keyin ochiladigan mavsumiy gullar, manzarali va mevali daraxtlarni aralash ekish, xullas, zamonaviy til bilan aytganda, landshaft dizayniga, bog‘lar oroyishi va orastalikka e‘tibor berildi. Temurning o‘zi Samarqand shahri atrofida 13 ta bog‘ yaratdi. Bog‘i Maydon, Bog‘i Baland, Bog‘i Shamol, Bog‘i Naqsh-u Jahon, Bog‘i Dilkusho, Bog‘i Bo‘ldi kabi bog‘lar shular jumlasidandir.

Konstruktiv mustahkamlik
oshirilgan

Mirzo Ulug‘bek davrida qurilgan imoratlar oldingi, xususan, Amir Temur davri inshootlariga nisbatan



me‘moriy shakllar mutanosibligi va kompozitsiyaviy yaxlitligi jihatidan takomillashtirilgani bilan ajralib turadi. Ulug‘bek davridagi obidalar hajmi nisbatan ixchamlanib, konstruktiv mustahkamligi ancha oshirilgan. Ulug‘bek, shuningdek, Shohizinda me‘moriy majmuasini yakunlashga muvaffaq bo‘lgan.

Temuriy Husayn Boyqaro zamonasida (1469-1509) Hirot yanada yirik, boy va madaniy shaharga aylanadi. O‘sha davrda Hirot shahri va Xurosonning boshqa viloyatlarida 12 mingdan ortiq bino va inshoot quriladi. Shaxsan Husayn Boyqaroning o‘zi ham masjid, madrasayu xonaqoh, karvonsaroy, ko‘priklar, bog‘-rog‘lar bunyod etadi. Shuningdek, u ma‘rifatparvarlik va ma‘murchilik ishlarini amalga oshiradi. Husayn Boyqaro hayoti silliq kechmagan. U ko‘p xatoliklarga ham yo‘l qo‘yadi. Ammo uning insoniylik va ma‘naviy fazilatlari ko‘p bo‘lgan.

Hirot shahri Temur va Shohruh zamonasida, keyinchalik Husayn Boyqaro va uning do‘sti Alisher Navoiy davrida me‘morlik, san‘at va madaniyatning yirik markazlaridan biriga aylanadi.

Sharq xalqlari tabobatga oid turli muassasalardan juda qadim zamonlardan boshlab foydalanib kelgan.

Jamoat binolarining bu xildagi namunalari qatoriga shifoxonalar, dorixonalar, hammomlar, garmobalar, shifobaxsh chashmalar hamda muassasalar (mineral suv, balchiqlar, issiq qum va issiq suv vositasida davolaydigan muassasalar hamda obzanxonalar) kirgan.

Temuriylar davrida ham bunday muassasalar qurilishi ancha rivojlangan, bu temuriylarning o‘z xalqi hayoti va turmushiga yaxshi ma‘naviy qadriyatlar bilan yondashganini, o‘sha davr davolash muassasalari arxitekturasida esa temuriylar davri me‘moriy tipologiyasining muhim tarkibiy qismiga aylanganini ko‘rsatadi.

Ba‘zida shifoxonalar yonida madrasalar qurilib, madrasa va shifoxona binolari yaxlit bir tabobat akademiyasi tarzida faoliyat ko‘rsatgan. Bunga misol qilib temuriylar davrida Hirotida Alisher Navoiy tomonidan Injil kanali yonida qurilgan Shifoia shifoxonasi va Ixlosiya madrasasi hamda Safoiya hammomini ko‘rsatish mumkin.

Suv shifoxonasiga qiyos

Xurosonda temuriy Abu Said Mirzo va Husayn Boyqaroning Gerirud tog‘i etagidagi tabiiy issiq suv bulog‘i bo‘yida qurgan garmobalar kompleksi hozirgi tushunchalar bilan ta‘riflansa, aholini davolovchi suv shifoxonasining naq o‘zi edi. Bunday imoratlar temuriylarning xalq salomatligi, ezigulik va xayriya yo‘lida qilgan sa‘y-harakatlariga isbotdir.

Yassaviyga bo‘lgan humat-e‘tiborini past qilib ko‘rsatmasin. Temurning Shahrisabzdagi Oqsaroy yoki Samarqanddagi jome masjid me‘moriy majmualarini bunyod ettirishi xususida ham shu fikrni bildirish mumkin. Umuman, Temur va temuriylar me‘mor-muhandislar bilan ittifoq tarzda inshootlar bino ettirganlar.

Temuriylar davrida me‘morlar o‘tmishdoshlarining ilg‘or tajriba va an‘analarni davom ettiribgina qolmay, balki o‘zlari ham kelajak avlodlar uchun boy madaniy meros va me‘moriy san‘at dasturini yaratib qoldiradi va rivoj toptiradi. Bunda, ayniqsa, me‘morlarning nazariy va amaliy handasa, arifmetika va trigonometriya ilmlarini bilgani, badiiy va ijodiy yetukligi muhim rol o‘ynaydi.

Mazkur davr arxitekturasiga xos bo‘lgan me‘moriy binolar davlat mavqei va qudratiga mos mahobatli va munaqqash, go‘zal. Ular kompozitsiyasida me‘moriy yaxlitlikka, simmetriya, ritm, me‘moriy shakllar va ranglar mutanosibligiga erishildi. Binolarni qurishda bir-biridan ajratgan holda emas, balki ularni turkumlash, ya‘ni binolardan tuzilgan go‘zal guldasta (me‘moriy majmua) ansambillar yaratildi.

Temuriylar davrida qurilgan har bir bino arxitekturasida, asosan, besh qismdan — bino kursisi, peshtoq, bino vujudi, imorat tarzi burchaklaridagi minorasimon burj (guldasta)lar va bino qismlarining badiiy tugallik shakllaridan tuzilgan. Ana shu xususiyat temuriylar davrida qurilgan deyarli barcha binolarga xosdir. Yana bir xususiyat bino peshtoqidan kirilgach, tarxi kvadrat yoki bo‘ylama o‘qli to‘g‘ri to‘rtburchakli ichki hovli bo‘lishidir. Faqat maqbaralar bundan mustasno.

Buning sababi shuki, issiq va quruq iqlimli mamlakatlardagi imoratlar hovlisi soya-salqin bo‘lishi hayotiy ehtiyojdir. Ichki hovlida quyosh chiqqandan to botgunga qadar hovlining uch tarafida soya bo‘lishi ta‘minlanadi. Soyaning kattaligi va davomiyligi etralabdan tushgacha va tushdan so‘ng kechgacha oshib borib, hovlida nafaqat quyush soyni, balki salqinlikni ham ta‘minlaydi. Iqlimi issiq bo‘lmagan mamlakatlarda esa bunga ehtiyoj yo‘q. Bundan tashqari, ichki hovli imorat ichki muhitning atrof chetdan mutlaq xohliligini va osoyishtaligini ishonchli tarzda ta‘minlaydi. Mana shu sabablarga ko‘ra, temuriylar davri imoratlari ham odatda ichki hovlilari qilib qurilgan, desak xato bo‘lmaydi.

Temuriylar davri arxitekturasining me‘moriy tipologiyasi va turlari shu qadar kengki, ulargacha Yevropa va O‘rta Sharqning ba‘zi mamlakatlari bunyodkorlik amaliyotida bunday bino va inshootlar turlari keng tarqalgan edi. Xalq salomatligi va gigiyenasini saqlashni ta‘minlovchi davolash muassasalari (shifoxonalar, dor ush-shifolar, dorixonalar, hammomlar, garmobalar) hamda so‘lim bog‘-saroylar hududida alohida bino tarzida qurilgan ko‘rgazma uyul fiktirami dalilidir. Bulardan tashqari, temuriylar davrida shahriston darvozalaridan to uning markazigacha cho‘zilgan uzun, usti yopiq bozor ko‘rinishidagi shahar savdo ko‘chalari ham qurilgan (Samarqandda shaharning Ohanin darvozasi yonidan to Registongacha, Hirotida shahriston darvozalaridan to markaziy chormahagacha qurilgan usti yopiq savdo ko‘chalari).

Amir Temur va temuriylar davrida nafaqat Movarounnahrda, balki butun O‘rta Sharqda bog‘-istirohatchilik san‘ati, ayniqsa, chorbog‘ uslubii yuksak taraqqiyotga erishdi. Chorbog‘ uslubii namunalari keyinchalik Bobur va boburiylar tomonidan Kobul va Shimoliy Hindiston shaharlarida, so‘ngra Shoh Abbos davrida Eronning Isfaxon shahrida qo‘llanilib, yanada takomillashtirildi. Shuningdek, bo san‘at islomiy hukmdorlar tasarrufida bo‘lgan davrda Ispaniyada ham rivojlantirildi. Temur yaratgan me‘moriy uslub va bog‘-park san‘atining Ispaniyaga va undan Yevropa mamlakatlariga tarqalishida Ispaniya qirolligi elchisi Klavixoning xizmati ham katta bo‘ldi.

Bu xususiyatlar Amir Temur va temuriylar davri arxitekturasining o‘ziga xos yangi badiiy-me‘moriy mazmuni va mohiyatini, ma‘naviy-g‘oyaviy sayvasini belgilab berdi va bu holat dunyo olimlari tomonidan “Temur uslubii” deb baholandi va tan olindi. Bu uslub o‘sha davrlarda poytaxt shaharlar hisoblangan nafaqat Samarqand, Shahrisabz, Hirot arxitekturasida, balki O‘rta Sharq shaharlaridagi islom arxitekturasida yo‘nalishini ham belgilab berdi. Bu uslubning o‘ziga xosligi, yangiligi va emosional jozibasiga nafaqat o‘z davrida, balki hozirgi avlodlar ham tan berib kelmoqda. Shunday ekan, temuriylar davri arxitekturasiga alohida e‘tibor berib, uni yanada chuqur o‘rganishimiz, bu bebaho merosni qadrlashimiz, o‘tmishdan bizgacha saqlangan me‘moriy va moddiy madaniyatimiz obidalari va yodgorliklarini ko‘z qorachig‘idek saqlash hamda kelajak avlodlarga bus-butan yetkazish muqaddas burchimiz ekanini unutmashimiz zarur.

BUYUK SOHIBQIRONMIZ — YANGI O‘ZBEKISTONMIZ

Ey ota yurt, tuganmas xayollarga cho‘mdik biz, Goh quvondik, goh dilga alamlarni ko‘mdik biz. Ona tuproq guvohdir shonli, shonsiz damlarga, Hammasini ko‘rdik, lek ko‘zimizni yumdik biz. Xudo bir, Rasul barhaq, Vatan, millat tomonmiz, Bobosi Sohibqiron, avlodi Temurxonmiz.

Oh qanchalar sinovni, mashaqqatni ko‘rgan xalq, E‘tiqodi hamisha sog‘-salomat turgan xalq. Kengash, mashvarat bilan davlat barpo aylagan, Hayotni mutlaq yangi o‘zanlarga burgan xalq. Tarix tegirmonidan butun chiqdik, omomnim, Bobosi Sohibqiron, avlodi Temurxonmiz.

Hazrati Amir Temur — Allohning mard askari, Millatning sarkardasi — yengilmas zo‘r lashkari. Kuch — adolatda degan da‘vatni shior etib, Vatan, millat, jasorat darsidir “Tuzuklar”i. Barchamiz yurt qalqoni, tinchligiga posbonmiz, Bobosi Sohibqiron, avlodi Temurxonmiz.

Pok dillarning ko‘ziga nurday oqqan Oqsaroy, Hasadgo‘y fosiqlarni xasdek yoqqan Oqsaroy. Qudratimizga shubha qilganlar bilib qo‘ysin, Jahonga jahongir zot bo‘lib boqqan — Oqsaroy. Ming shukr, ko‘hna zamin ko‘ksida sharaf-shonmiz, Bobosi Sohibqiron, avlodi Temurxonmiz.

Ulug‘bek sirlashadi hamon yulduzlar bilan, Olam kezmoqda Bobur ishq to‘la so‘zlar bilan. Navoiydek sultonlar, shohlarni bergan xalqim, Ozodlik yashay olmas bukilgan tizlar bilan. Hurriyat — biz abadiy uzilmaydigan jonmiz, Bobosi Sohibqiron, avlodi Temurxonmiz.

Asl farzandning el-yurt, Vatan bo‘lar matlabi, Burgutday parvoz aylar, haybati arslon kabi. Toki bir tan-u bir jon ekan xalq va armiya, Temurbeklar kamoli — temurbeklar maktabi. Hayotbaxsh daryolarmiz — birlashib bir ummonmiz, Bobosi Sohibqiron, avlodi Temurxonmiz.

Xalqim, mardsan azaldan, nomardga so‘z tegmasin, Yurt baxtini ko‘rolmas nokasga ro‘z tegmasin. Jahon bilan bo‘ylashgan ulkan mamlakat — Vatan, Kelajakni ko‘zlagan davronga ko‘z tegmasin. Hammamiz Amir Temur, Buyuk Sohibqironmiz, Buyuk Sohibqironmiz — Yangi O‘zbekistonmiz.

G‘ayrat MAJID

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “Kolopak” MCHJ mas‘ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqm bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 1162.
44543 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolopak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Abdurauof Qorjoyov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘zA yakuni — 02:25 Topshirildi — 02:45